

DUNYO TILLARIDA “NAVOIY” TAXALLUSINING YOZILISHI

Sherzod Qodirov,

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17983710>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Navoiy” taxallusining dunyo tillaridagi yozilishi, transliteratsiya va fonetik moslashuv jarayonlari tahlil etildi. Tadqiqot doirasida taxallusning arab va fors alifbosidagi shakllari, rus, ingliz, nemis va o‘zbek tillaridagi orfografik va bibliografik qiyoslari o‘rganildi. Xalqaro bibliografik tizimlarda (Library of Congress, Deutsche Nationalbibliothek, VIAF va boshqalarda) “Navoiy” taxallusining turlicha qayd etilishi uning ilmiy tadqiqotlarda identifikatsiyasiga ta’sir ko‘rsatishi qayd etildi. Maqolada transliteratsiyaning turli standartlari – ALA-LC, ISO 9, BGN/PCGN va milliy o‘zbek lotin alifbosi asosida taxallus shakllarining farqlari va ularning madaniy hamda adabiy qabul qilinishi tahlil qilindi. Shu bilan birga, transliteratsiya va tarjima o‘rtasidagi farq, taxallusning semantik yuki va uning turkiy madaniy merosdagi ramziy ahamiyatiga e’tibor qaratildi. Taxallusning xalqaro miqyosda yagona yozuv shaklida qayd etilishi zarurligini ilgari surilgan va uning bibliografik tizimlarda standartlashtirilishi yuzasidan takliflar berishga intilingan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, taxallus, transliteratsiya, chig‘atoy adabiyoti, orfografiya, bibliografik standartlar, madaniy identifikatsiya, arab yozuvi, o‘zbek lotin alifbosi, ALA-LC, ISO 9, VIAF.

Аннотация. В данной статье анализируются написание псевдонима Алишера Навои «Навои» в языках мира, процессы его транслитерации и фонетической адаптации. В рамках исследования рассмотрены формы псевдонима в арабской и персидской письменности, а также проведено орфографическое и библиографическое сопоставление его написаний в русском, английском, немецком и узбекском языках. Отмечается, что различная фиксация псевдонима «Навои» в международных библиографических системах (Library of Congress, Deutsche Nationalbibliothek, VIAF и др.) оказывает влияние на его идентификацию в научных исследованиях. В статье проанализированы различия в формах написания псевдонима на основе различных стандартов транслитерации — ALA-LC, ISO 9, BGN/PCGN и национального узбекского латинского алфавита, а также их культурное и литературное восприятие. Наряду с этим уделяется внимание различию между транслитерацией и переводом, семантической нагрузке псевдонима и его символическому значению в тюркском культурном наследии. Обосновывается необходимость унификации написания псевдонима на международном уровне и предпринимается попытка выработки предложений по его стандартизации в библиографических системах.

Ключевые слова: Алишер Навои, псевдоним, транслитерация, чагатайская литература, орфография, библиографические стандарты, культурная идентификация, арабская письменность, узбекский латинский алфавит, ALA-LC, ISO 9, VIAF.

Abstract. This article examines the orthographic representations of Alisher Navoi’s pen name “Navoi(y)” in various world languages. The study explores the forms of the name in Arabic and Persian scripts and compares its transliteration in Russian, English, German, and Uzbek languages. Particular attention is given to bibliographic and linguistic inconsistencies found in international cataloging systems such as the Library of Congress, Deutsche Nationalbibliothek, and VIAF, which affect the academic identification and indexing of Navoi’s works. The paper analyzes multiple transliteration standards including ALA-LC, ISO 9, and BGN/PCGN in comparison with the official Uzbek Latin script, highlighting phonetic and semantic implications of each form. Furthermore, the symbolic and cultural significance of the pen name within the Turkic literary heritage is discussed, emphasizing the distinction between transliteration and translation. The study concludes with a call for standardized representation of the pen name in global bibliographic databases to ensure consistency and scholarly accessibility.

Keywords: Alisher Navoi, pen name, transliteration, Chagatai literature, orthography, bibliographic standards, cultural identity, Arabic script, Uzbek Latin alphabet, ALA-LC, ISO 9, VIAF.

Kirish. Alisher Navoiyning ilmiy va adabiy merosi nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki butun turkiy va islom olami madaniyati uchun muhim ahamiyatga egadir. Uning taxallusi “Navoiy” turli tillarda turlicha shakllarda yozilishi va talaffuz etilishi ta’lifot va tarjima an’analari, transliteratsiya standartlari hamda fonetik o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Bu holat uning nomini xalqaro adabiyot va manbalarda izlash, targ‘ib etish yoki tahlil etish jarayonlariga muayyan ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada “Navoiy” taxallusining dunyo tillarida qanday yozilishi o‘rganildi, bu yozuv shakllarining shakllanishiga ta’sir etgan omillar tahlil qilindi va ularning manbashunoslik, lingvistik hamda madaniy jihatdan ahamiyati baholandi.

Tadqiqot obyekti sifatida “Navoiy” taxallusining arab, fors, rus, o‘zbek, turk, ingliz, nemis tillaridagi imloviy va fonetik shakllari tanlangan. Ushbu tadqiqotda fonetik yaqinlik, transliteratsiya usullari, tarixiy yozuv an’analari hamda adabiy manbalardagi ishlatilish holati asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Maqsad “Navoiy” taxallusining ko‘p tilli yozilish shakllari orqali uning xalqaro miqyosdagi qabul qilinishi, ilmiy targ‘ib va standartlashuv jarayonidagi o‘rnini ko‘rsatishdir.

Adabiyotlar tahlili. Adabiy taxallus sifatida “Navoiy” so‘zi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tomonidan o‘z ijodiy faoliyati davomida muntazam ravishda qo‘llangan bo‘lib, uning ma’naviy-estetik dunyoqarashi va san’at bilan bog‘liq ichki hissiyotlarini ifoda etuvchi ramziy bir nomga aylangan. Bu taxallusning paydo bo‘lishi va ma’no jihatidan shakllanishi Chig‘atoy adabiy an’analari, arab va fors leksikasining ta’siri hamda Alisher Navoiyning shaxsiy san’atkorona qarashlari bilan bog‘liqdir. Shu o‘rinda mantiqiy savol tug‘iladi: Alisherbek nega o‘ziga “Navoiy” taxallusini tanlagan va bu taxallus zamirida qanday ma’no yashirin? Bu savolga javobni esa Ibrohim Haqqulning “Alisher Navoiy taxalluslarining ma’no qirralari haqida” nomli maqolasidan olish mumkin. Taxallusning ijodkor hayotidagi o‘rni va uni tanlash usullari haqida yozar ekan, olim Navoiyning munosib va muvofiq taxallus tanlash masalasiga qanchalik jiddiy e’tibor berganini yozadi va Navoiyning o‘z asarlarida keltirgan fikrlari orqali o‘z fikrlarini dalillaydi. Jumladan, Navoiyning ushbu fikrlarini keltiradi: “Mavlon o Bu Ali – devonavor yurur. Devona bo‘lmasa erdi, Bu Ali taxallus qilg‘aymu erdi? [3.101] Ya’nikim, “es-hushi joyida odam o‘zini Ibn Sinoga teng ko‘rmasligi shubhasizdir” [8].

Navoiyshunos A.Abduqodirov “navo” so‘zining ma’nolariga to‘xtalar ekan, uning “navo, kuy, ohang”dan tashqari yana “oshiq, faqir, xoksor, tengsiz, yagona, yangi, toza, ishchanlik, tartib-intizom” kabi bir necha ma’nolarni anglatishini ta’kidlaydi [1.10]. A.Semyonov esa “Navoiy” taxallusi haqida shunday fikr bildirgan: “Navoiyning o‘zi bir qancha musiqiy asarlar yaratgan zo‘r bastakor va kompozitor bo‘lgani bois adabiy taxallusga musiqa istilohidan “Navoiy”ni tanlagan” [15.149].

“Navoiy” so‘zi leksik jihatdan “navo” ya’ni “ovoz”, “kuy”, “ohang” ma’nolariga ega bo‘lib, unga -iy nisbat affiksi qo‘shilishi orqali “navolik”, “kuyga oid” yoki “ohangli” ma’nolarini ifodalaydi. Chig‘atoy tilida -iy affiksi nisbat va sifat yasashda keng qo‘llanilgan.

Demak, “Navoiy” taxallusi lug‘aviy jihatdan “kuy-sado sohibi”, “navo bilan bog‘liq” degan ma’nolarni anglatadi.

Ba’zi tadqiqotlarda “Navoiy” so‘zining forsiy “nava” (navo, kuy) so‘zi bilan uyg‘unligi ham qayd etilgan, bu esa uning fors adabiy an‘analari bilan bog‘liqligiga ishora qiladi. Shu bilan birga, Alisher Navoiyning sufiy va musiqiy madaniyatga bo‘lgan aloqasi taxallus tanloviga ta’sir qilgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Shuningdek, O‘zbek tilining izohli lug‘atida “navo” so‘zining kam ishlatiladigan ma’nosi sifatida “g‘am-alamni ifoda etuvchi ayanchli ovoz” degan ma’nosi ham keltirilgan bo‘lib, bu Navoiyning o‘ziga xos, diniy va tasavvufiy qarashlarini ham ifodalaydi.

Navoiyning o‘z asarlarida taxallusni qanday shaklda yozgani haqidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, uning ko‘plab qo‘lyozma nusxalarida “نوايي” (navoi) yoki ba’zi hollarda “نوائى” shakllarida uchraydi. Bunda arab alifbosidagi harf tanlovlari va shevalarning ta’siri hisobga olinadi. Umuman, “Navoiy” taxallusi orqali shoir o‘zini musiqa, she’riyat va ruhiy jarayonlar bilan bog‘liq shaxs sifatida namoyon etadi. Shu tariqa, taxallus nafaqat shaxsiy identifikatsiya vositasi, balki ma’naviy-estetik pozitsiyaning ifodasi sifatida ham xizmat qilgan. Tadqiqotning metodologik asoslari va nazariy-metodik usulini deskriptiv-lingvistik tahlil, qiyosiy-analitik yondashuv, tarixiy-uslubiy tahlil, korpus-lingvistik kuzatuv, semiotik yondashuv tashkil etadi. Tadqiqot doirasida taxallusning xalqaro ma’lumotlar bazalarida (Library of Congress, Deutsche Nationalbibliothek, VIAF) qanday shakllarda ro‘yxatga olingani tahlil qilindi. Bu borada metama’lumotlar tahlili, identifikatorlar bilan bog‘liq izchillik (VIAF ID, ISNI) va avtoritet fayl standartlari muhim metodologik asos sifatida qaraldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot lingvistik, manbashunoslik va lingvomadaniy yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqotda **deskriptiv-tahliliy metod** orqali “Navoiy” taxallusining turli tillar va yozuv tizimlaridagi imloviy shakllari tavsiflandi. **Qiyosiy-lingvistik metod** yordamida arab, fors, rus, ingliz, nemis va o‘zbek tillaridagi yozilish variantlari o‘zaro solishtirilib, ularning fonetik va orfografik farqlari aniqlandi. Shuningdek, **transliteratsion tahlil** asosida ALA-LC, ISO 9, BGN/PCGN kabi xalqaro standartlar hamda o‘zbek lotin alifbosining tamoyillari qiyoslab o‘rganildi. **Tarixiy-uslubiy metod** orqali taxallusning chig‘atoy adabiy an‘analaridagi shakllanishi va uning keyingi davrlardagi yozuv amaliyotiga ta’siri yoritildi.

Tadqiqotda **bibliografik va metama’lumotlar tahlili** usulidan foydalanilib, Library of Congress, Deutsche Nationalbibliothek, VIAF kabi xalqaro axborot bazalarida taxallusning qayd etilish shakllari o‘rganildi. Shuningdek, **lingvomadaniy yondashuv** asosida “Navoiy” taxallusining semantik yuki, madaniy ramziyati va milliy identifikatsiyadagi o‘rni baholandi.

Tahlillar va natijalar.

“Navoiy” taxallusining turli tillardagi yozilish shakllari.

Arab va fors manbalarida.

Arab va fors alifbosida “Navoiy” taxallusi, asosan, quyidagi shakllarda uchraydi:

- نوایی
- نوائی
- Kam hollarda: نَوَائِي

Bu shakllar, avvalo, arab alifbosining orfografik imkoniyatlari, shevaga xos farqlar va manba mualliflarining til uslubi bilan belgilanadi. Arab alifbosi tovush belgilashda bo‘g‘inli emas, balki harfiy asosga ko‘ra qurilgani tufayli, bir xil so‘z turlicha yozilishi mumkin. Masalan, نوائی shaklidagi ی harfi fors tilida yakuniy “y” ni belgilasa, نوایی shaklida ikki ی harfining ketma-ket kelishi Chig‘atoy tilidagi talaffuzni aniqroq ifodalash maqsadida qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin.

Fors tilida “Navoiy” taxallusi ko‘proq نوایی shaklida transliteratsiya qilinadi. Bu shakl eronlik adabiyotshunoslar va matnshunoslar tomonidan rasmiy nashrlarda ham qo‘llanilgan. Fors adabiy uslubida taxalluslarning ovozi (unli) harflar bilan ko‘rsatilishi murakkab bo‘lgani sababli, talaffuzni tiklashda qo‘shimcha tahliliy ish talab etiladi. Arabcha manbalarda esa (masalan, kabi ensiklopediyaviy to‘plamlarda) taxallus, odatda, نَوَائِي tarzida, ya’ni harakatlar bilan (fatha, damma, kasma) berilgan holda uchraydi. Bu shakl ko‘proq arab tili o‘quvchilariga mo‘ljallangan manbalarda uchraydi va talaffuzni osonlashtirishni ko‘zda tutadi.

Taxallusdagi -iy nisbat affiksi arab tilida ham, fors tilida ham keng tarqalgan grammatik forma bo‘lib, shaxsning bir hududga, sohalarga, yoki xususiyatlarga nisbatan aloqadorligini ko‘rsatadi. Bu nuqtai nazardan, “Navoiy” taxallusi nafaqat ovozga oid, balki muayyan estetik fazoga mansublikni ham ifoda etadi.

Rus tilida “Navoiy” taxallusining yozilishi.

Rus tilshunosligi va sharqshunoslik an‘analarida Alisher Navoiy nomi, asosan, ikki asosiy shaklda uchraydi:

- Navoi
- Navoiy

Ushbu ikki shakl orasidagi farq fonetik va orfografik prinsiplarga, shuningdek, transliteratsiya usullarining turli bosqichlariga bog‘liq.

1. “Navoi” shakli:

XX asrdagi ko‘plab sovet manbalarda, jumladan, sharqshunoslik va adabiyotshunoslik nashrlarida “Navoi” shakli keng tarqalgan. Bu shakl arab-forscha imloni rus fonetikasiga yaqinlashtirish orqali hosil qilingan bo‘lib, oxiridagi “-iy” ni “-i” bilan soddalashtirib berish bilan tavsiflanadi. Bunday transliteratsiya siyosiy va lingvistik zarurlarga bog‘liq bo‘lib, rus alifbosining talablari va o‘quvchining talaffuz imkoniyatlarini hisobga olgan holda shakllangan. Shunday qilib, “Alisher Navoi” shaklidagi yozuv ilmiy va ommaviy adabiyotlarda ancha vaqt davomida hukmron bo‘lib keldi.

2. “Navoiy” shakli:

Ayniqsa, 1990-yillardan keyin, o‘zbek tilidagi lotin alifbosiga o‘tish va milliy adabiy merosni asl shaklda tiklash jarayonida “Navoiy” shaklidagi transliteratsiya rus tilidagi ba’zi akademik va tarjimonlik matnlarida ham paydo bo‘ldi. Bu shakl o‘zbek tilidagi lotincha “Navoiy” shaklini rus alifbosida aks ettirishga intiladi va shu tariqa ijodkorning milliy identifikatsiyasini saqlashga xizmat qiladi.

Rus tilidagi ba’zi ensiklopediyalar (masalan, “Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya”) va ta’lim resurslarida bugungi kunda ikkala shakl ham mavjud bo‘lib, ular ma’lum kontekstlarga bog‘liq holda qo‘llaniladi:

- Ilmiy yoki an’anaviy tekstlarda: Navoi (Навои)
- Milliy yozuvga sodiq qolgan nashrlarda: Navoiy (Навоий)

3. Talaffuz masalasi:

Rus tilida “iy” ovozlari ketma-ketligi ko‘pincha bir “i” sifatida talaffuz etiladi. Shu sababli, “Navoiy” shaklidagi yozuv har doim ham turkiycha “Navā’ī” ning to‘liq fonetik tusini aks ettira olmaydi. Bu, o‘z navbatida, aslida chuqur madaniy-ezoterik ma’noga ega taxallusning leksik-qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ingliz tilida “Navoiy” taxallusining yozilishi.

Ingliz tilli adabiyotlarda Alisher Navoiy taxallusining yozilishi bir necha shaklda uchraydi. Bu shakllar, asosan, transliteratsiya an’analari, orfografik standartlar, va tarjimon yoki muallifning til strategiyasi bilan belgilanadi. Quyida eng ko‘p uchraydigan shakllar keltiriladi:

- Navoi
- Nawai
- Navā’ī (sharqshunoslar va ilmiy nashrlarda)
- Ali-Shir Nava’i (to‘liq ism va taxallus birgalikda)
- Alisher Navoi (ommaviy variant)

1. “Navoi” shakli

Eng keng tarqalgan va yengillashtirilgan shakl hisoblanadi. Bu forma ingliz tilidagi yozuv qoidalariga moslashtirilgan bo‘lib, fonetik soddalashtirish maqsadida oxiridagi –iy (yoki –ī) ni oddiy “i” bilan ifodalaydi. Masalan, “Navoi” shakli Oxford Islamic Studies Online, Britannica, hamda ko‘plab ommaviy tahliliy maqolalarda qayd etilgan.

2. “Navā’ī” shakli

Bu shakl ilmiy tadqiqotlarda, xususan, turkologik va sharqshunoslik sohalaridagi akademik nashrlarda uchraydi. Unda arabiy shakl — نوائى — ning ilmiy transliteratsiyasi saqlab qolingan. Bu yerda:

- “ā” – turkiy tilidagi uzun ovoz (الف);
- “ ‘ ” – hamzani belgilaydi (ع);
- “ī” – yakuniy “y” ni (ى) ifodalaydi.

Bu shakl Encyclopaedia of Islam, EI2, va JSTORDagi ko‘plab ilmiy maqolalarda ishlatilgan.

3. “Ali-Shir Nava’i” shakli

To‘liq ism va taxallus birgalikda kelgan holatlarda ko‘proq uchraydi. Bu shakl German Vamberiy (Hermann Vambéry) kabi ilk yevropalik tarjimon va sharqshunoslar tomonidan qo‘llangan bo‘lib, ular arab alifbosidagi asl shaklni lotin alifbosiga aynan ko‘chirishni maqsad qilganlar. Bunda “Nava’i” yoki “Navai” shakli, taxallusdagi yakuniy “y”ni uzun “ī” sifatida berishga harakat qilinadi.

Talaffuz va uslubiy muammolar.

Ingliz tilidagi “Navoi” yoki “Navai” shakllari haqiqiy talaffuzni to‘liq aks ettirmaydi. Masalan, “Navoi” ingliz o‘quvchisi tomonidan /'nævɔi/ yoki /nə'vɔi/ tarzida talaffuz qilinishi mumkin, bu esa chig‘atoy tilidagi asl /navā'ī/ (navoiy) ning ritmika va fonetikasini yo‘qotadi. Shu sababli, ba’zi ilmiy nashrlarda diakritik belgilar (ā, ī, ‘) saqlanishi taklif etilgan.

Nemis tilli sharqshunoslik an‘analarida Alisher Navoiy taxallusining yozilishi turli transliteratsiya uslublari va grafik standartlarga ko‘ra shakllangan. XIX va XX asrda faoliyat yuritgan german sharqshunoslari, xususan, Hermann Vambery, Karl Foy, Annette Meakin, va boshqalar taxallusning imlosini o‘z davridagi ilmiy metodlarga moslashtirgan holda qayd etganlar. Ushbu imlo shakllari asosan quyidagicha:

- Nawā'ī (klassik transliteratsiya)
- Nava’i
- Navoi
- Kam hollarda: Navoiy, Navoy

1. “Nawā'ī” shakli

Bu shakl eng ilmiy asoslangan varianti hisoblanadi. Unda:

- ā – uzun “a” tovushini;
- ‘ – hamza (ع) ni;
- ī – uzun “iy” tovushini bildiradi.

Hermann Vambery o‘zining “Cagataische Sprachstudien” [Vambery, 1867] asarida taxallusni aynan “Nawā'ī” tarzida qayd etgan. Bu nemis tilidagi sharqshunoslar tomonidan arab va chig‘atoy alifbosi asosida amalga oshirilgan ilmiy transliteratsiya uslubiga asoslanadi.

2. “Nava’i” shakli

Ushbu shakl ham Vambéry va keyingi ba’zi sharqshunoslar asarlarida uchraydi. Unda ā va ī diakritik belgilari olib tashlangan, ammo hamza (‘) belgisi saqlangan. Bu variantning maqsadi ilmiylikni saqlagan holda o‘quvchi uchun imloni yengillashtirishdan iborat bo‘lgan.

3. “Navoi” va “Navoiy” shakllari

XX asr oxirida va XXI asr boshidagi nemis tilidagi ba’zi ommaviy manbalarda “Navoi” yoki “Navoiy” shakllari uchraydi. Bu shakllar, asosan:

- internet kataloglari (DNB, WorldCat);
- o‘zbek lotin alifbosi ta’siri;

- xalqaro standartlashgan avtor nomlari ta'siri ostida vujudga kelgan.

Nemis tilida -iy ni “iy” yoki “i” deb yozish orqali anglatish uslubi turli matnlarda turlicha qo'llaniladi. Masalan, Alischer Navoi yoki Ali-Schir Nawā'ī kabi shakllar ham uchraydi.

Imlo va standart muammolari.

Nemis tilida “Navoiy” taxallusining imlosi uchun aniq standart mavjud emas. Deutsche Nationalbibliothek va Gemeinsame Normdatei (GND) kabi rasmiy bibliografik tizimlarda ko'pincha “Navoi, Alisher” yoki “Ali-Schir Nawā'ī” kabi shakllar mavjud. Bu holat nemis tilida fonetik muvofiqlashtirish emas, balki standartlashgan bibliografik identifikatsiya talablariga ko'proq bog'liq. Jumladan, nemis sharqshunosi Barbara Kellner-Heinkele o'z maqolalarida taxallusni quyidagicha yozadi: “Mīr 'Alīšīr Nawā'ī – eine Skizze zum historischen Hintergrund” [10.9–10]. Yoki Birnbaum Eleazar “The Ottomans and Chagatay Literature. An Early 16th century manuscript of Nava'is Divan in Ottoman orthography” nomli maqolasida taxallusni “Nava'i” tarzida ishlatadi [4.157–190].

O'zbek tilida, ayniqsa, lotin alifbosida “Navoiy” taxallusining yozilishi.

O'zbek tilida Alisher Navoiy taxallusining yozilishi turli tarixiy davrlarda har xil alifbo va orfografik tizimlar ta'sirida shakllangan. Ayniqsa, XX asr davomida kirill, yangi o'zbek lotini, hamda transliteratsiya standartlarining o'zgarishi “Navoiy” taxallusining imlosini turli shakllarda keltirilishiga sabab bo'lgan.

1. Kirill alifbosida: “Navoiy”

Sovet davrida qabul qilingan o'zbek alifbosida taxallus mutlaq ravishda “Navoiy” tarzida yozilgan va bu shakl adabiyot, darsliklar, ilmiy nashrlar va ensiklopediyalarda ustuvor bo'lib kelgan. Bu shakldagi yozuv chig'atoy tilidagi -iy nisbat affiksini to'liq saqlagan holda o'zbekcha grafik orfografiyada aks ettirilgan. Jumladan, 1976-yilda Natan Mallayev tomonidan nashr qilingan “O'zbek adabiyoti tarixi” darsligida taxallus “Навоий” tarzida keltirilgan: “Ўзбек тилидаги шеърларида “Навоий” (“наво” сўзидан), форс-тожик тилидаги шеърларида эса, асосан, “Фоний” (“фано” сўзидан) ва баъзан “Навоий” тахаллусини қўллайди [12.364].

2. Lotin alifbosida: “Navoiy”

1993-yilda o'zbek tilida lotin alifbosiga o'tish bilan birgalikda taxallus “Navoiy” tarzida rasman qabul qilindi. Bu shaklda:

- “Navo” – asosiy ildiz so'z;
- “iy” – o'zbek lotin alifbosidagi y harfini ifodalovchi to'plam.

Bu shakl O'zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasi, darsliklar, rasmiy hujjatlar va O'zR Fanlar akademiyasi nashrlarida ustuvor imlo sifatida foydalanildi. Alisher Navoiy nomi bilan ataluvchi ko'chalar, muassasalar, jamiyatlar va tadbirlar nomlarida ham aynan ushbu shakl ishlatildi (Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti).

Amaliyotda “Navoi”, “Navoy”, hatto “Nawai” kabi shakllar ham foydalanilishi kuzatiladi. Bu shakllar, asosan, quyidagilarda qayd etiladi:

- Xalqaro axborot bazalarida (masalan, Wikipedia, Google Scholar);
- Turkiy davlatlar o‘rtasidagi nom moslashuvi (m, Turkiyada “Navoi”);
- Imloviy savodxonlik darajasi past bo‘lgan materiallarda.

Hozirgi kunda o‘zbek tilida “Navoiy” shakli eng to‘g‘ri va ilmiy asoslangan deb hisoblanadi. Bu shakl nafaqat asl chig‘atoy orfografiyasini (نوائى) fonetik jihatdan yaqin ifodalashga urinadi, balki milliy yozuv standartlariga ham mos keladi. O‘zbek lingvistikasida taxalluslar yozuvi, ayniqsa, mashhur shaxslar nomini kirildan lotinga to‘g‘ri o‘tkazishda, davlat orfografiyasi asosida standartlashtirilishi lozim.

Tarjima va transliteratsiya usullari tahlili.

Alisher Navoiy taxallusining turli tillarga transliteratsiya qilinishi va xalqaro ilmiy manbalarda qayd etilishi murakkab lingvistik jarayonlar, bibliografik standartlar va siyosiy-tarixiy omillar bilan uzviy bog‘liq. Bu jarayonda har bir transliteratsiya tizimi muayyan maqsad — fonetik yaqinlik, orfografik aniqlik yoki sistemalashtirilgan identifikatsiya asosida shakllanadi.

Xalqaro bibliografik tizimlarda transliteratsiya

a) Library of Congress (LoC)

AQSh Kongressi kutubxonasining ALA-LC (American Library Association – Library of Congress) transliteratsiya standartlariga ko‘ra, Navoiyning ismi “Navā’ī, Alishir” tarzida yoziladi. Bu shaklda:

- “ā” — uzun ovoz (long vowel);
- “‘” — hamza (ع);
- “ī” — yakuniy “y” ovozi.

Bu shakl arab alifbosidagi نوائى taxallusining orfografik moslashuvini aniq ifoda etadi.

b) Deutsche Nationalbibliothek (DNB)

Germaniya Milliy kutubxonasida (DNB) Navoiyning ismi asosan quyidagi shakllarda qayd etilgan:

- Navoi, Alisher
- Ali-Schir Nawā’ī

Bu yerda “Nawā’ī” shakli sharqshunoslik an‘analariga mos, Ali-Schir (Alisher) tarzida yozilishi esa nemis tilining tarixiy fonetikasini aks ettiradi.

c) WorldCat va VIAF (Virtual International Authority File)

WorldCat va VIAF kabi global bibliografik kataloglarda Navoi, Alisher, 1441–1501 yoki Nawa’i, Ali-Shir kabi shakllar mavjud. Ularda transliteratsiya turlicha bo‘lsa-da, har bir identifikatsiya unikal raqam bilan birlashtirilgan sababli izlanishlarda noaniqlik yuzaga kelmaydi.

Transliteratsiya tizimlari va ularning xususiyatlari:

Tizim nomi	Imlo namunasi	Izoh
ALA-LC (US)	Navā'ī	Ilmiy fonetik aniqlik, hamza va uzun ovozlarni saqlanadi
Iso 9 (Xalqaro)	Navoij	Kirilldan lotinga yozuvda umumiy standart
BGN/PCGN (UK/US)	Navoiy	Geografik va milliy nomlar uchun
GOST (Rossiya)	Навои → Navoi	Kirill alifbosidan oddiy transliteratsiya
O'zbek lotini	Navoiy	Milliy orfografik standart

Tarjima va transliteratsiya o'rtasidagi farq:

Taxallus tarjimasi amalga oshirilmaydi. Masalan, "Navoiy" so'zining "kuyli", "ohangli" kabi lug'aviy ma'nolari borligiga qaramay, uning adabiy taxallus sifatida tarjima qilinishi man etilgan. Bu uning shaxsiy va madaniy identifikatsiyasiga zarar etkazishi mumkin. Ana shu nuqtai nazardan, transliteratsiya (ya'ni alifbodan alifboga ko'chirish) jarayonida taxallusning asl grafikasi, fonetikasi va madaniy konteksti e'tiborga olinishi shart.

Transliteratsiyada uchraydigan muammolar

- Harf mos kelmasligi: "Ayn" (ع) va "ālif maqṣūra" (ع) kabi harflarni lotin alifbosida ifoda etishda noaniqliklar bo'ladi.
- Fonetik qarama-qarshiliklar: ba'zi tillarda "Navoi" turlicha talaffuz qilinishi mumkin.
- Bir shaxs – ko'p yozuv shakli: turli ma'lumot bazalarida bitta muallif bir necha xil shaklda qayd etilgan bo'ladi (Navoi, Navā'ī, Nawa'i).

Alisher Navoiy taxallusining turli tillarda turlicha yozilishi uning adabiy merosining xalqaro miqyosda qabul qilinishi, izlanishi va anglanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir, avvalo, madaniy identifikatsiya, bibliografik izlanish imkoniyatlari, hamda adabiy merosning targ'iboti kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. "Navoiy" taxallusi nafaqat shaxsiy mualliflik belgisi, balki turkiy ma'naviy merosning simvoli sifatida qaraladi. Bu taxallusni har xil tilda qanday yozilishining o'zi ham uning transmilliy tabiati va universal ma'naviy meros sifatida qabul qilinishiga ishora qiladi. Masalan, O'zbekistonda "Navoiy" milliy madaniyat, tarix va davlat ramzlarida markaziy o'rin egallasa, Turkiyada "Ali Şir Nevai" turk adabiyotining bir qismi sifatida o'rganiladi yoki Yevropa va AQShda "Nawā'ī" ilmiy manbalarda Sharq poetik merosi sifatida ko'riladi. Bunday keng qamrovli madaniy mulk sifatida taxallus shakllarining orfografik aniqligi va standartlashuvi umummadaniy ongdagi Navoiy obrazini mustahkamlaydi.

Taxallusning har xil shaklda yozilishi ayrim hollarda ilmiy tavsiyalarning farqli bo'lishi, tarjimon tanlovlari, va ommaviy anglash murakkabliklarini keltirib chiqargan. Masalan,

- "Navoi" – fonetik yengilroq, ammo ma'naviy yuki kamroq;
- "Nawā'ī" – orfografik to'liqlikka ega, lekin ommaviy o'quvchi uchun noodatiy;
- "Navoiy" – milliy standartga mos, lekin xalqaro bazalarda har doim ham tan olinmaydi.

Adabiy asarlarning tarjimalarida taxallusning asl ma'nosini tushunish ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Navoiy" taxallusidagi "navo" – sado, kuy, musiqa singari ma'nolar shoirning ruhiy-estetik tabiati bilan bog'langan bo'lib, bu mazmun tarjima mualliflari tomonidan anglash va qayta yaratish talabini qo'yadi. Taxallusning bir necha yozuv shakllariga egaligi ilmiy tadqiqotchi uchun ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, 1. Ma'lumotlar tarqoqligi: bir kitobda "Navoi", boshqasida "Navā'ī", yana boshqasida "Nawa'i" shaklida qayd etilishi natijasida ma'lumotlar yagona indeksatsiyada to'planmaydi. 2. Qidiruvdagi noaniqlik: elektron axborot bazalarida bitta muallifning bir necha "sinonim" shakldagi taxalluslari bo'lishi natijasida ma'lumotga yetishish murakkablashadi. 3. Ilmiy iqtiboslarda ixtilof: asar nomi va taxallus yozilishida standart yo'qligi tufayli iqtiboslar noto'g'ri qayd etilishi mumkin.

Ayrim hollarda taxallusning yozilishi ideologik anglashuvlarga ham bog'liq holda shakllangan. Sovet davrida "Navoi" (Navoi) shakli soddalashtirilgan holda qabul qilingan bo'lsa, milliy uyg'onish jarayonlarida "Navoiy" shakli qayta tiklangan va etnomadaniy simvol sifatida mustahkamlangan.

Xulosa. Alisher Navoiyning taxallusi "Navoiy" uning shaxsiy ijodiy dunyoqarashi va turkiy madaniy merosning poetik ramzi sifatida qabul qilinadi. Ushbu taxallusning turli tillardagi yozilish shakllari, uning orqali anglashuvi va xalqaro ilmiy muomaladagi holati lingvistik, bibliografik va madaniy nuqtai nazardan tahlil qilinganda quyidagi xulosalarga kelinadi:

1. Taxallusning ma'nosi va etimologiyasi chig'atoy tili, fors va arab tillari leksikasi bilan bog'liq bo'lib, u "ovoz", "navo", "ohangli" kabi ma'nolarni ifoda etadi. Bu esa Navoiy poetikasining musiqaga moyil estetikasini bildiradi.

2. Taxallusning yozilish shakllari tillar o'rtasida farq qiladi. Masalan, arab va fors alifbosida نوائي, rus tilida "Navoi/Navoiy", ingliz tilida "Navoi/Nawā'ī/Nawa'i", nemis tilida "Nawā'ī/Navoi", o'zbek tilida esa rasman "Navoiy" tarzida qabul qilingan.

3. Xalqaro bibliografik tizimlarda turli transliteratsiya standartlari qo'llanilishi natijasida bitta muallif nomining bir nechta shakllarda qayd etilishi kuzatiladi. Bu holat ma'lumotlarni izlash, guvohliklarni standartlashtirish va iqtibos olishda muammolar keltirib chiqaradi.

4. Taxallusning madaniy ta'siri milliy va xalqaro miqyosda turlicha namoyon bo'ladi, o'zbek tilida davlat va madaniyat ramzi sifatida, boshqa tillarda esa ko'proq adabiy meros sifatida qabul qilinadi.

Shuningdek, xalqaro transliteratsiya standartlari bo'yicha yagona yondashuv ishlab chiqilishi, masalan, ALA-LC yoki BGN/PCGN standartlaridan birini tanlab, turli tillardagi manbalarda sharqona taxalluslar bir xilligini ta'minlash, O'zbekistondagi elektron kitobxonalar, bibliografik ma'lumot bazalari va ilmiy portallarda taxalluslarni yagona identifikator (ID, DOI, VIAF ID) asosida to'plash va indekslash tizimini joriy etish,

taxalluslarning orfografik tahlillari va fonetik transkripsiyasi bo'yicha maxsus lug'at va manbashunoslik qo'llanmalarini nafaqat o'zbek olimlari, balki chet tillarida Navoiy va turkiy xalqlar ijodi bilan tanishishni istagan auditoriya uchun ham tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarda taxallus tarjima qilinmasligi, balki fonetik yaqinlikni saqlagan holda transliteratsiya qilinishi hamda sharqona taxalluslarning qanday yozilishini ko'rsatuvchi korpus – ko'p tilli elektron baza yaratilishi, unda barcha asosiy yozuv shakllari, ularning manbalari va kontekstlari qamrab olinishi bugungi kun manbashunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abduqodirov A. Amir Alisher Navoiy. Xo'jand. (2013).
2. ALA-LC Romanization Tables. (1997). Washington, D.C.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 13-jild. Toshkent: Fan. (1997).
4. Birnbaum Eleazar. The Ottomans and Chagatay Literature. An Early 16th century manuscript of Nava'is Divan in Ottoman orthography, / Central Asiatic Journal, Nr. 20. SS. 157-190. (1976).
5. Bobojon, G'. Alisher Navoiy lug'ati. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2004).
6. Deutsche Nationalbibliothek (DNB). URL: <https://d-nb.info> (murojaat sanasi: 15.06.2025). (2024).
7. Encyclopaedia of Islam, Second Edition. Leiden: Brill.
8. Haqqul I. Alisher Navoiy taxalluslarining ma'no qirralari haqida. O'zbek tili va adabiyoti. 5-son. (2016).
9. ISO 9:1995. Information and documentation – Transliteration of Cyrillic characters into Latin characters.
10. Kellner-Heinkele, B. Mīr 'Alīšīr Nawā'ī – eine Skizze zum historischen Hintergrund. In Akten des Symposiums aus Anlass des 560. Geburtstages und des 500. Jahres des Todes von Mīr 'Alīšīr Nawā'ī Würzburg: Ergon-Verlag GmbH. (pp. 9–10). (23. April 2001).
11. Library of Congress Authorities. URL: <https://id.loc.gov> (murojaat sanasi: 15.06.2025). (2024).
12. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi. (1976).
13. Navoi, A. Devon (G'aroyib us-sig'ar). Toshkent: Fan nashriyoti. (1963).
14. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12 jildlik. Toshkent: "UzME" nashriyoti. (2000–2005).
15. Semyonov A. Rodonachalnik uzbekskoy literaturi. Tashkent: S. 149. (1940).
16. The Oxford Islamic Studies Online. Entry: Navā'ī, Alisher. (2023).
17. Vambéry, H. Cagataische Sprachstudien. Leipzig: Brockhaus. (1867).